



# O'zIQMKning qisqacha 2021-yil sarhisobi


O'zIQMK kredit portfelining o'zgarishi,  
mlrd so'm



Hamkor banklarda O'zIQMK talablariga mos ipoteka kreditlari dinamikasi, mlrd so'm



2021-yilda ikkilamchi uy-joy bozori uchun ajratilgan kreditlarda O'zIQMK ulushi



- Yil boshiga taqqoslaganda O'zIQMK kredit portfeli 3.7 barobar o'sdi.
- Yillik o'sishning 62%i Ipotekabank, SQB va Hamkorbankka ajratilgan kreditlar hisobiga erishildi.
- May oyida O'zbekistonda birinchi marta **ipotekani qayta moliyalashtirish** amaliyoti amalga oshirildi.
- 2021-yil 31-dekabr holatiga banklarga ajratilgan resurslarning 98.3%i ipoteka kreditlari bilan ta'minlangan bo'lmoqda.


- Umumiy hisobda 2021 yil davomida 10 861 nafar fuqaroga O'zIQMK talablariga mos 2 013 mlrd so'mlik ipoteka kreditlari ajratildi.
- Banklar tomonidan ajratilgan talabga muvofiq ipotekalarning 69.5%i (1 408 mlrd so'm) O'zIQMK tomonidan qayta moliyalashtirildi.
- O'zIQMK talabiga muvofiq eng ko'p ipoteka kreditlari SQB, Hamkorbank va Ipoteka bank tarafidan ajratildi.

- Banklar tarafidan ajratilgan muvofiq ipotekalarning 99.8% ikkilamchi uy-joy bozoridan mulk sotib olish uchun ishlatilgan.
- Bu esa o'z navbatida ikkilamchi bozor ulushining, banklardagi yil davomida ajratilgan ipoteka hajmidagi 3% dan (2020 y.), 2021y. da 22%ga yetishiga turtki bo'ldi.
- Kompaniya hisobidan ajratilgan resurslar ikkilamchi va birlamchi bozor uchun bir xil shartlarda ajratildi.




# O'zIQMKning qisqacha 2021-yil sarhisobi

### Choraklar kesimida ajratilgan ipoteka kreditlarining manbalari




- Mamlakatimizda yil davomida 9794.1 mlrd so'mlik ipoteka kreditlari ajratilgan bo'lib, bunda kompaniyaning ulushi 20.5% ni tashkil etdi.
- Choraklar kesimida 4-chorakda eng ko'p ipoteka ajratilgan bo'lib, mos ravishda 2 950.5 mlrd. so'm (Boshqa manbalar) va 694.2 mlrd. so'm (O'zIQMK resurlari) ga taqsimlandi.
- Kompaniya talablariga mos ajratilgan ipoteka kreditlarida ayollarning ulushi 29.5%ni tashkil etdi

### Qayta moliyalashtirilgan portfelning kredit oluvchilari yoshi kesimida



- Qayta moliyalashtirilgan ipoteka kreditlarining eng katta qismi 40 yoshdan kichik fuqarolar tarafidan rasmiylashtirilgan (71.4%)
- Jami qayta moliyalashtirilgan kreditlarda O'zIQMK ulushi 80%, banklarning ulushi 20%ni tashkil etmoqda.
- Qayta moliyalashtirilgan portfelda pensiya yoshi va undan yuqori yoshdagi qarz oluvchilar 20ta (0.3%)ni tashkil etgan.

### Qayta moliyalashtirilgan ipotekalarning hudud bo'yicha tasqimlanishi



- Bir qarz oluvchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha qayta moliyalashtirilgan ipoteka (QMI) miqdori bo'yicha Toshkent sh. (236 mln), Samarqand (204 mln) va Andijon (194 mln.) viloyatlari yetakchilik qildi.
- Hududiy aholi jon boshiga nisbatan hududiy qayta moliyalashtirilgan ipoteka hajmi bo'yicha Toshkent sh., Navoiy va Toshkent v., hamda Qoraqalpog'iston R. yetakchilik qilmoqda.
- Hududlar kesimida Farg'ona v. (38%), Qoraqalpog'iston R.(36.2%) va Namangan v.(35.8%)da ayollarning ulushi eng yuqori bo'ldi.